

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 338:6II2.15.61(575,1)

XUDOYOROVA MEHRANGIZ MURODOVNA

ELEKTRON XIZMATLAR INFRATUZILMASINI YAXSHILASH VA
RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

70310102 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” mutaxassisligi
bo‘yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Dsc, dots. G.G. Umarova

TOSHKENT - 2024


Magistrlik dissertatsiya ishi “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan oʻtgan.

3-sonli bayonnoma « 22 » aprel 2024 y.

Ilmiy rahbar: Dsc, dots. G. Umarova



Talaba: M. Xudoyorova



Dissertatsiya Iqtisodiyot fakultetida 2024-yil
№ 1/01 raqami bilan roʻyxatga olingan.

“ 13 ” 05 ”

“Himoyaga tavsiya etiladi ”

“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes”

kafedrasi mudiri, dots.I.Xotamov



“07 ” may 2024-yil

Himoya 2024-yil “ 16 ” 05 ” soat 14⁰⁰ da “Texnopark” mas’uliyati cheklangan jamiyatida boʻlib oʻtadi.

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, davlat xizmatlari hamda aholiga xizmat ko'rsatish tizimda muhim o'rin tutayotgan elektron xizmatlar infratuzilmasi va ulardan samarali foydalanish, davlat tomonidan raqamli iqtisodiyot muhitini takomillashtirish va bu orqali iqtisodiyotning raqamlashgan tarmoq va sohalarini rivojlantirish masalasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlaridan biridir.

Raqamli iqtisodiyot tarmoqlarida elektron xizmatlardan samarali foydalanishni tashkil etish va uni yaxshilashga qaratilgan nazariy materiallar va amaliy tahlil natijalarini ahamiyatini ochib berish maqsadida mavzuimiz doirasida tadqiqot olib bordik. Mavzuimiz doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari, mahalliy xorijiy adabiyotlarni o'rganib chiqdik. Ilmiy ishimizda nafaqat nazariy fikrlar, balki mintaqa iqtisodiyoti va xizmat ko'rsatish sohasiga elektron xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini keng tadbiq etish amaliyoti tahlili o'rganildi. O'rgangan ma'lumotlarimiz va tahlil natijalarimizdan kelib chiqib, mintaqa xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishda elektron xizmatlarning ahamiyati dolzarb ekanligini va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali samaraliroq foydalanish yuzasidan xulosa hamda takliflar ishlab chiqdik.

***Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, online xizmatlar, online tijorat, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, elektron xizmatlar infratuzilmasi*

ANNOTATION

The development of the digital economy in our country based on modern requirements, the infrastructure of electronic services that play an important role in the system of public services and services to the population, and their effective use, improving the environment of the digital economy through the State and development of digitalized industries and sectors of the economy due to this are issues of public socio-economic one of the directions.

In order to reveal the significance of theoretical materials and the results of practical analysis aimed at organizing and increasing the efficiency of using electronic services in sectors of the digital economy, we conducted a study on our topic. We studied research work carried out within the framework of our topic, domestic and foreign literature. Our scientific work examined not only theoretical ideas, but also an analysis of the practice of widespread use of electronic service infrastructures in the regional economy and service sector. Based on the information received and the results of our analysis, we came to the conclusion that the importance of electronic services in the development of the region's service system is relevant and that they can be used more effectively with government support.

***Keys words:** digital economy, online services, online trading, socio-economic problems, electronic services infrastructure*

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.....	3
KELTIRILGAN JADVALLAR RO‘YHATI.....	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO‘YHATI.....	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....	9
KIRISH.....	10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	12
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	14
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	14
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	16
Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat.....	16
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	17
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	19
1.1. Kirish.....	19
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	19
1.3. Mahalliy me‘yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
II-BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	26
2.1. Tadqiqot dizayni.....	26
2.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	27
2.3. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	28
2.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	31
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	31
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy ahamiyati.....	32
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	34
3.1. Xorijiy mamlakatlar miqyosida elektron xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning ko‘rsatkichlari.....	34
3.2. Mamlakat iqtisodiyotida elektron xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish jarayoni va elektron xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar tahlili.....	50
3.3. Raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta‘minlashda elektron xizmatlarning rolini oshirish va sohani yanada takomillahtirish istiqbollari.....	63
Xulosa.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar.....	76

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi olib borgan tahliliy o'rganishlarga qaraganda, so'nggi yillarda O'zbekistonda elektron xizmatlar raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda elektron xizmatlar infratuzilmasi, elektron tijorat va chakana savdo hajmi barqaror o'sib bormoqda. Xususan, 2023-yilda elektron tijorat savdolari hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 10 886,8 milliard so'mdan ortiqni tashkil etdi. Bu umumiy chakana savdo hajmining 4 foizdan ortig'iga teng.¹

O'zbekistonda elektron xizmatlarning kelajagini belgilovchi muhim omillardan biri—sohani qonunchilik bilan tartibga solishdir. 2022-yilda yangilangan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonun iste'molchilarni ham, tadbirkorlarni ham huquqiy himoya qiladi, elektron operatsiyalarni amalga oshirish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash tartibini belgilaydi.² Ishonchli va barqaror elektron xizmatlar infratuzilmasini yaratishda qonunchilik va to'lov tizimlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular jarayonning barcha ishtirokchilari — ham xaridorlar, ham sotuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

2019-yilda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va bu fintech sektorining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Elektron to'lovlar iste'molchilar va biznes uchun qulaylik va xavfsizlikni ta'minlovchi onlayn xizmat ko'rsatishning ajralmas qismiga aylandi.³ O'zbekistonda onlayn tranzaksiyalarni osonlashtiradigan bir qancha to'lov tizimlari mavjud.

Soliq xizmati portalining ma'lumotlariga ko'ra, elektron xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning sonining sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Joriy yilning 1-avgust holatiga ularning soni 159 taga yetdi, jumladan, 52 ta elektron to'lov tizimi va 35 ta bank mobil ilovasi, 72 ta internet-do'kon va savdo maydonchalari mavjud. Yil boshidan 1-avgustgacha taqdim etilgan cheklar miqdori 28 438,8 milliard so'mni

¹ O'zbekiston Respublikasining Statistika portali ma'lumotlariga asosan <https://stat.uz/uz/>

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Elektron tijorat to'g'risida". O'RQ-792-son/ 29.09.2022-yil. <https://lex.uz/docs/-6213382>

³ O'zbekiston Respublikasining Qonuni "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida". O'RQ-578-son/ 01.11.2019-yil. <https://lex.uz/docs/-4575786>